ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

METHODOLOGICAL SYSTEM OF IMPROVING THE EDUCATION OF STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL PRIDE THROUGH THE EXPRESSION OF THE IMAGE OF ANCESTORS

Khaitov Zufar Asroralievich
Termez State Pedagogical Institute
Teacher khaitovzufar679@mail.ru +99833 272 74 94

Annotation: Stages of practical implementation of the methodology of educating students in the spirit of national pride.

Keywords: Portrait Miniature, composition, composition, holistic perception

AJDODLAR SIYMOSINI IFODALASH VOSITASIDA TALABALARNI MILLIY IFTIXOR RUHIDA TARBIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK TIZIMI

Xaitov Zufar Asroralievich
Termiz davlat pedagogika istituti
O‘qituvchi xaitovzufar679@mail.ru +99833 272 74 94

Annotatsiya: Talabalarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash metodikasining amaliy bajarish bosqichlari.

Kalit so‘z: Portret Miniatyura, komponovka, tuslash, yaxlit idrok

Kirish. Ajdodlar siymosini ifodalash yosh avlodga milliy g‘urur iftixor kabi sifatlarni rivojlantirish bilan bir qatorda buyuk tariximiz to‘g‘risida chuqur bilimga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Shu jumladan buyuk ajdodlarimizdan Abu nasr Farobiy Farobiy (taxallusi; to‘liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Forobiy) (873, Farob shahri - 950, Damashq) O‘rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ‘ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o‘zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo‘shgani uchun “al Muallim assoniy” (Ikkinchi muallim, Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” nomlariga sazovor bo‘ldi. Farobiy Sirdaryo sohilidagi Farob (O‘tror) degan joyda turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida tavallud topadi.

O‘sha davrda Movarounnahrda somoniylar sulolasi hukmronlik qilayotgan edi. Bo‘lajak faylasuf boshlang‘ich bilimini O‘trorda olgandan so‘ng, o‘qishini Toshkent, Samarqand va Buxoroda davom ettirdi. Farobiy ilmini yanada chuqurlashtirish maqsadida Bag‘dodga yo‘l oladi. Olim yo‘l-yo‘lakay Eronning yirik shaharlari Ray, Hamadon, Isfahon va boshqa joylarda bo‘ladi. Bag‘dodda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridan kelgan talaba va olimlar to‘plangan edi. Bu yerda ko‘zga ko‘ringan olim-u fuzalolar bilan tanishdi, yunon falsafiy maktabi, turli fan sohalari namoyandalari bilan uchrashib, ulardan ilm sirlarini o‘rgandi. Masalan, Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870-940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Hiylondan (860-920) esa tibbiyot va mantiq ilmini o‘rgandi. Ba’zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan.

Olim 941-yildan Damashqda muhtojlikda kun kechira boshlaydi. Shunga qaramay, ilm bilan shug‘ullanadi, falsafa va boshqa fanlar sohasida tadqiqot ishlari olib boradi. U Aleppo (Halab) hokimi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

Hamdamid (hukmronlik yillari 943-967) iltifoti va hurmatiga erishadi. U olimlarning homiysi sifatida tanilgan edi. Hokim Forobiyni o‘z saroyiga taklif etadi, lekin, u saroyga bormasdan, erkin hayot kechirishni ma’qul ko‘radi. Shunga qaramasdan, allomaning Halabdagi hayoti sermahsul bo‘ldi, bu yerda o‘zining ko‘plab asarlarini yozdi. Forobiy 949-950 yillarda Misrda, so‘ngra Damashqda yashaydi va shu yerda umrining oxirgi kunlarini o‘tkazadi. U Damashqsagi “Bob assag‘ir” qabristoniga dafn etilgan.

Mavjud ma’lumotlarga qaraganda, Farobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramay, mavjud risolalarining o‘ziyoq uning buyuk olim ekanligidan dalolat beradi.

Farobiyning asosiy asarlari: “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida”, “Falsafiy savollar va ularga javoblar”, “Ensiklopediyadan mantiq bo‘limining bir qismi”, “Taliqot” (sharhlar), “Inson a’zolari haqida risola“, “Bo‘shliq haqida maqola”, “Donolik asoslari”, “Falsafaning ma’nosi va kelib chiqishi”, “Hayvon a’zolari, funksiyasi va potensiyasi”, “Mantiq to‘g‘risidagi risolaga muqaddima”, “Mantiq ilmiga kirish”, “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, „Musiqa haqida katta kitob“, „Baxtsaodatga erishuv haqida“, „Masalalar mohiyati“, “Buyuk kishilarning naqllari”, “Ihso alulum”, “Hikmat ma’nolari”, “Aql to‘g‘risida”, “Ilmlar va san’atlar fazilati”, “Qonunlar haqida kitob”, “Substansiya haqida so‘z”, “Falak harakatining doimiyligi haqida”, “She’r va qofiyalar haqida so‘z”, “Ritorika haqida kitob”, “Hajm va miqdor haqida so‘z”, “Musiqa haqida so‘z”, “Fizika usullari haqida kitob” “Fazilatli xulqlar”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida”, Aristotel “Metafizika“ kitobining maqsadi to‘g‘risida va boshqa Forobiy asarlari 20-asrning 70-80 yillarida Toshkent va Olmaotada “Falsafiy risolalar”, “Mantiqiy risolalar”, “Matematik risolalar”, “Ijtimoiyaxloqiy risolalar”, “Tadqiqotlar va tarjimalar” nomlari ostida rus tilida nashr etilgan.

Farobiy ilk o‘rta asrda, Sharq Uyg‘onish davrida ijod etdi. Bu davr ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi, hunarmandchilik, irrigatsiya inshootlarining yuksalishi, yangi shaharlarning bunyod etilishi, madaniy va ma’naviy hayotning ravnaq topishi bilan ajralib turadi. IX-X asrlarda ichki va tashqi savdo kuchaydi, ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Vizantiya, Afrika mamlakatlari bilan aloqa yo‘lga qo‘yildi. Bu davr qarama-qarshilik va adovatlardan xoli emas edi. Farobiyning falsafiy qarashlarida o‘sha davrning yutuq va kamchiliklari, murakkab va ziddiyatli jihatlari o‘z ifodasini topdi.

Olimning ilm fan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon mutafakkirlari asarlarini sharxlaganligi va ularni yangi g‘oyalar bilan boyitganligidir. Alloma, eng avvalo, Arastu asarlariga sharhlar bitgan, uning naturfalsafiy g‘oyalarining targ‘ibotchisi va davomchisi sifatida tanilgan. Farobiy, shuningdek, Aflotun, Aleksandr Afrodiziyskiy, Yevklid, Ptolemey, Porfiriy asarlariga ham sharh yozganligi ma’lum. Bulardan tashqari, Gippokrat, Epikur, Anaksagor, Diogen, Xrisipp, Aristipp, Suqrot, Zenon asarlaridan xabardor bo‘lgan hamda epikurchilar, stoiklar, pifagorchilar, kiniklar maktablarini yaxshi bilgan. Farobiy o‘rta asrda mukammal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratdi. Ajdodlar siymosini ifodalash vositasida talabalarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash metodikasini takomillashtirish ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni muayyan tizimli, izchil va uzluksiz olib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Rassomlarning o‘z ijodiy ustaxonasida samarali ishlashi dolzarb hisoblanadi. Ular asarlarida o‘z xalqi uchun mehnat qilgan buyuk tarixiy shaxslar obrazlarini yaratdilar. Psixologizm, obrazlarning aniqligi, mahorat bilan ishlash estetikasi ularning asarlarini boshqa tasviriy janrlardan farqlab turadi. Ular O‘zbekiston madaniyatidagi tasviriy san’at fenomeni


ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

hisoblanadi. Ajdodlarimizning ilm fan yo‘lida qo‘shgan buyuk hissalarini etirof etish, siyratini chuqur tanish har bir yosh kelajak avlodni vazifasidir. Buyuk ajdodimiz Abu Nasr Farobiyni portretini bosqichli metodika asosida tasvirlash jarayonini taqdim etdik. **1-rasm.**

Usullar



1-bosqich



2-bosqich

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11



3-bosqich



4-bosqich



5-bosqich



6-bosqich

U “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Ilmlarning tasnifi haqida” nomli risolalarida o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tavsifi va tafsilotini bayon qilib berdi. Mutafakkir

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

tabiat va inson organizmiga xos bo‘lgan tabiiy jarayonlarni o‘rganuvchi ilm sohalarini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Farobiy ilmlarni quyidagicha tasniflaydi: 1) til haqidagi ilm (grammatika, orfografiya, she’riyat, to‘g‘ri yozuv va boshqalarni o‘z ichiga oladi); 2) mantiq (8 bo‘limdan iborat bo‘lib, tushuncha, muhokama, xulosa, sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalarni o‘z ichiga oladi); 3) mat. (arifmetika, geom., astronomiya, mexanika, optika, sayyoralar, musiqa va og‘irlik haqidagi ilmdan iborat); 4) tabiiy ilmlar, ilohiy ilmlar yoki metafizika; 5) shahar haqidagi ilm (siyosiy ilm, fiqh, ped., axloqshunoslik va kalom kiradi). Abu Nasr Farobiyning portretini tahlil qilib tasvirlashni bosqichli metodika orqali ifodalashni quydagi tartibda bajardim. Bu metod tasvirlashni oson o‘rganishni va ajdodlarimizni o‘tkir nigohini maqsad sari intilishini yuz ko‘rinishlaridan aniq ko‘rish va sezishlari mumkin. Har bir bosqichni ifodlash jarayonida ajdodlarga bo‘lgan hurmat ehtiromni namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Tarbiyaning zamonaviy tamoyillari - tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasida subyekt-subyekt munosabatlarinmg o‘rnatilishi, dialog nuqtai nazariga muvofiq tarzda shunday xulosaga kelindiki, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun psixik jarayonlarga (inotivasiya, anglash, interiorizasiya va boshqalar) tashqi ta’sirlar ichki, individual-shaxsiyga organik va mustahkam aylanadigan pedagogik shart-sharoitlami yaratish zarur. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Milliy g‘urur quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: millatning yutuqlari, obro‘- e’tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o‘z eliga, millatiga jonkuyar bo‘lish; o‘z millatining moddiy, ma’naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an’analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o‘z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon etish. Milliy g‘urur ma’naviyat tarkibida muhim o‘rin tutadi. Milliy g‘urur millatning o‘tmishda fan, adabiyot, san’at rivojiga qo‘shgan hissasi, buyuk allomalari, atoqli sarkardalari faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Milliy g‘ururi bo‘lmagan kimsa boshqa millatlarga bosh eguvchi kosmopolitga, manqurtga aylanadi. Milliy g‘ururning predmeti va mazmuni, ya’ni qanday shaxslar qanday voqea-hodisalar bilan faxrlanayotgani shu millatning mazkur davrdagi ma’naviy qiyofasini ko‘rsatadi. Xalqlar tarixida shunday davrlar bo‘lishi mumkinki, unda millatchilik, shovinistik, hatto fashizm g‘oyalari ustuvorlik qila boshlaydi. Bunday davrlarda Milliy g‘urur predmeti salbiy hodisalar: maqtanchoqlik, boshqa millatlarni pastga urish, o‘z millatining boshqa millatlarga nisbatan ustunligini targ‘ib etish kabi illatlarda namoyon bo‘ladi. Milliy iftixor milliy g‘urur tuyg‘ularini ajdodlarimiz siymosini tanish orqali rivojlanishini ilmiy tadqiqot ishimizda o‘z ifodasini topdi.

Adabiyotlar

1.Baymetov B. “Qalamtasvir”. Darslik 1-qism.- Toshkent, Musiqa 2006

2.Xalilov R. Рисунок.Toshkent «Navruz» 2013.

3.Кузин В.С. Психологиуа. Учебник. -М.: Агар, 1997. - С. 304., ил.

4.Кузин В.С. Вопросы изобразительного творчества. -М.: Просвещение, 1971. -С. 144.

5. Shavkat S., Zufar X., Mahliyo Y. GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS //Universum: технические науки. – 2021. – №. 11-5 (92). – С. 95-98.

http://www.edu.uz

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

6. Asroralievich X. Z., Abdumalikovna G. F. IMPROVING THE SKILLS OF STUDENTS TO CREATE PSYCHOLOGICAL PORTRAITS IN PAINTING AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS //SCIENCE AND CIVILIZATION-2020. – 2020. – С. 105.

7. Asroraliyevich X. Z. THE ROLE AND PRACTICAL IMPORTANCE OF" PAINTING" IN THE DEVELOPMENT OF FINE ARTS //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 05. – С. 166-168.

8.Asroralievich K. Z. Psychological Portrait Pencil Characteristics of Perception Formation in the Description of the Image //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 312-316.

9. Asroralievich, K. Z., Shonazarovna, M. M., & Ziyodullayevna, C. P. (2024). Improving the Education of Students in the Spirit of National Pride Through the Expression of the Image of Ancestors. Miasto Przyszłości, 54, 1707-1711.

10. Xaitov, Z. A. (2023). AJDODLAR SIYMOSINI IFODALASH VOSITASIDA TALABALARNI MILLIY IFTIXOR RUHIDA TARBIYALASH METODIKASI. Inter education & global study, 1(4), 30-32.

11. Хаитов, З. А. (2022). ПСИХОЛОГИК ПОРТРЕТ ҚАЛАМТАСВИРИНИ ТАСВИРЛАШДА ИДРОК ЭТИШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Scientific Impulse, 1(4), 184-189.

12. Xaitov, Z. A. (2023). O ‘QUVCHILARGA TASVIRIY SANAT DARSLARIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNING NAZARIYADAGI AHVOLI TAHLILI. Inter education & global study, 1(4), 27-29.

13. Xaitov, Z., Mamadaminov, G. A., & Xudoyberdiyeva, M. (2025). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN FUTURE ART TEACHERS THROUGH THE STUDY OF THE WORKS OF EASTERN THINKERS. Journal of Applied Science and Social Science, 1(3), 328-331.